

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI – YOSHLAR NIGOHIDA: FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA MAJBURIYATLARI DIALEKTIKASI

Kamoliddinov G‘ulomjon

Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy Rahbar: Po‘latov Otabek

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20283380>

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan fuqarolarning asosiy konstitutsiyaviy huquqlari va majburiyatlari mukammal tahlil ostiga olingan. Muallif bo‘lajak huquqshunos va yosh avlod vakili sifatida huquq va majburiyat tushunchalarining dialektik aloqadorligini yuridik hamda falsafiy jihatdan yoritib beradi. Maqolada yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, konstitutsiyaviy normalarning jamiyat hayotidagi bevosita ta‘sir doirasi va amaliy ahamiyati tizimli ravishda tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, huquq tizimi, yuridik majburiyat, fuqarolik jamiyati, talaba, huquqiy madaniyat, dialektika, shaxs erkinligi, konstitutsiyaviy burch, NamDU, yuridik fakultet.

Abstract

This scientific article provides a comprehensive analysis of the fundamental constitutional rights and duties of citizens established in the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. As a future legal scholar and representative of the younger generation, the author explains the dialectical interrelation between the concepts of rights and obligations from both legal and philosophical perspectives. The article systematically examines the enhancement of legal awareness and legal culture among youth, as well as the direct impact and practical significance of constitutional norms in the life of society.

Keywords: Constitution, legal system, legal obligation, civil society, student, legal culture, dialectics, individual freedom, constitutional duty, NamSU, Faculty of Law.

Аннотация

В данной научной статье всесторонне проанализированы основные конституционные права и обязанности граждан, закреплённые в новой редакции Конституции Республики Узбекистан. Автор, как будущий юрист и представитель молодого поколения, раскрывает диалектическую взаимосвязь понятий прав и обязанностей с юридической и философской точек зрения. В статье системно рассматриваются вопросы повышения правового сознания и правовой культуры молодёжи, а также непосредственное влияние и практическое значение конституционных норм в жизни общества.

Ключевые слова: Конституция, правовая система, юридическая обязанность, гражданское общество, студент, правовая культура, диалектика, свобода личности, конституционный долг, НамГУ, юридический факультет.

Har qanday mustaqil va suveren davlatning ijtimoiy-siyosiy hamda huquqiy qiyofasini belgilovchi, uning fundamental tamoyillarini mustahkamlovchi asosiy hujjat shubhasiz uning Bosh qomusidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi nafaqat oliy yuridik kuchga ega bo'lgan qonunlar majmuasi, balki xalqimizning ko'p asrlik davlatchilik tajribasi, milliy qadriyatlar va kelajak poydevorini belgilab beruvchi strategik dasturdir. 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumini orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya mamlakatimiz taraqqiyotida yangi ijtimoiy huquqiy davrni boshlab berdi. Mazkur islohotlar zaminida inson qadri, uning huquqlari va erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko'tarish maqsadi yotadi[1].

Biz – bugungi kun yoshlari, xususan, bo'lajak huquqshunos talabalar yangilangan Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini faqatgina nazariy qoidalar sifatida emas, balki hayotimizning bevosita harakatlantiruvchi kuchi sifatida anglamoqdamiz. Biroq, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida fuqarolarning huquqlari va ularning zimmasidagi konstitutsiyaviy majburiyatlar masalasi hamisha dolzarb bo'lib qolmoqda. Huquqiy adabiyotlarda hamda ijtimoiy munosabatlarda aksariyat hollarda huquqlarni talab qilish va ulardan foydalanish ustuvorlik kasb etadi, vaholanki, davlat va jamiyat barqarorligi har qanday huquqning orqasida turgan muqaddas burch va majburiyatlarning bajarilishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Ushbu maqolada fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlari o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni talaba nigohi va ilmiy yondashuv asosida tahlil qilishga harakat qilamiz. Konstitutsiyamizning muqaddimasida hamda asosiy prinsiplarida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi qat'iy belgilab qo'yilgan. Huquqiy nuqtai nazardan qaraganda, yangilangan Bosh qomusimiz "inson – jamiyat – davlat" paradigmasiga asoslanadi. Ilgari mavjud bo'lgan "davlat – jamiyat – inson" tamoyilidan voz kechilganining o'ziyoq mamlakatimizda inson omiliga qanchalik katta e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi[2].

Konstitutsiyaning Ikkinchi bo'limi to'liq inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va majburiyatlariga bag'ishlangan bo'lib, ularni tizimli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: Shaxsiy huquqlar va erkinliklar. Bu guruhga yashash huquqi, shaxsiy daxlsizlik, erkinlik, shaxsiy hayotning daxlsizligi, turar joy daxlsizligi hamda fikrlash, so'z va e'tiqod erkinliklari kiradi. Ta'kidlash joizki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada shaxsiy huquqlarni ta'minlash mexanizmlari sezilarli darajada kengaytirildi. Xususan, jinoiy protsessda inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro tan olingan standartlari – "Miranda qoidasi" va "Xabeas korpus" institutlari konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. Bu har bir talaba va fuqaroning shaxsiy erkinligi davlat qat'iy himoyasida ekanligini anglatadi. Siyosiy huquqlar. Siyosiy huquqlar fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish imkoniyatini kafolatlaydi. Bunga saylash va saylanish huquqi, davlat organlariga murojaat qilish huquqi, birlashish huquqi hamda tinch yig'ilishlar, mitinglar va namoyishlar o'tkazish huquqi kiradi. Bugun Namangan Davlat universiteti talabalari misolida ham ko'rishimiz mumkinki, yoshlar ijtimoiy siyosiy jarayonlarda nafaqat saylovchi, balki turli darajadagi deputatlikka nomzod, siyosiy partiyalar faollari va fuqarolik jamiyati institutlarining yetakchilari sifatida faol ishtirok etmoqdalar. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar. Ushbu huquqlar insonning munosib turmush darajasini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, mulkdor bo'lish, mehnat qilish, erkin kasb tanlash, xavfsiz mehnat sharoitlariga ega bo'lish, dam olish, ijtimoiy ta'minot hamda malakali tibbiy

xizmatdan foydalanish huquqlarini o'z ichiga oladi. Ayniqsa, ta'lim olish huquqi talaba yoshlar uchun hayotiy ahamiyatga egadir. Konstitutsiyaning 50-moddasida har kimning ta'lim olish huquqi kafolatlangani, davlat bepul umumiy ta'lim olishni ta'minlashi hamda oliy ta'lim muassasalarida tanlov asosida davlat granti hisobidan bepul o'qish imkoniyati yaratilgani belgilab qo'yildi[1].

Bu qoida minglab iqtidorli yoshlarning, jumladan, biz kabi viloyat oliygohlarida tahsil olayotgan talabalarning ilm-fan cho'qqilarini zabt etishiga keng yo'l ochdi. Huquqiy ong yuksak bo'lgan jamiyatda har bir shaxs o'z huquqlarini bilishi bilan bir qatorda, zimmasidagi majburiyatlarni ham teran anglaydi va ularga so'zsiz rioya qiladi. Afsuski, huquqiy nigilizm yoki huquqiy madaniyatning yetishmasligi oqibatida ko'pincha faqat huquqlarni talab qilish, majburiyatlarni esa unutish holatlari ko'zga tashlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning asosiy majburiyatlari aniq va qat'iy belgilangan: Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish majburiyati (48-modda). Bu har bir fuqaroning, ayniqsa ziyoli qatlam vakillari va bo'lajak huquqshunoslarning eng birlamchi yuridik va ma'naviy burchidir. Qonun ustuvorligi ta'minlangan jamiyatdagina inson huquqlari amalda real himoyalanaadi. Qonunlarni bilmaslik shaxsni yuridik javobgarlikdan ozod etmasligini har bir yosh yodda tutishi shart[3].

O'zgalarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyati (48-modda). Shaxs erkinligi mutloq emas. Demokratiyaning asosiy oltin qoidasiga ko'ra, "Sizning erkinligingiz boshqa bir insonning burni boshlangan joyda tugaydi". Biz o'z huquqlarimizdan foydalanayotganda atrofimizdagi insonlarning haq-huquqlari, diniy va milliy tuyg'ulari, sha'ni va qadr qimmatiga putur yetkazmasligimiz lozim. Ayniqsa, bugungi axborotlashgan asrda, ijtimoiy tarmoqlarda so'z erkinligi niqobi ostida feyk xabarlar tarqatish, kiberbulling bilan shug'ullanish va o'zgalarni haqorat qilish kabi salbiy holatlarga qarshi yosh yuristlar qat'iy turishlari kerak. Tarixiy, ma'naviy va madaniy merosni saqlash (49-modda). O'zbekiston boy tarixiy va madaniy merosga ega mamlakatdir. Ajdodlarimiz yaratgan buyuk obidalar, ilmiy va madaniy boyliklarni ko'z qorachig'idek asrash, ularni kelajak avlodga bezavol yetkazish har bir yosh avlod zimmasidagi vijdoni burchidir. Atrof-muhitni asrash (50-modda). Ekologik muammolar, global iqlim o'zgarishi, Orol dengizining qurishi kabi tahdidlar davrida atrof-muhitga oqilona munosabatda bo'lish hayot-mamot masalasiga aylandi. Yangi Konstitutsiyada ekologik majburiyatlar va huquqlar alohida chuqur mazmun kasb etdi. Biz tabiatni asrashimiz, suv va tabiiy resurslarni isrof qilmaslik madaniyatini o'zimizda shakllantirishimiz kerak. Soliqlarni to'lash va Vatanni himoya qilish (51, 52-moddalar). Qonun bilan belgilangan soliqlar va yig'imlarni to'lash davlatning ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishi, maktab, shifoxona va yo'llar qurishi uchun poydevordir. O'zbekiston Respublikasini himoya qilish esa har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Vatan xavfsizligi va tinchligi davlatimiz barqarorligining kafolatidir. Falsafiy va huquqiy dialektika shuni o'rgatadiki, qarama-qarshiliklar va uzviy bog'liqliklar tabiat va jamiyat rivojining asosiy qonuniyatidir. Huquq va majburiyat ham xuddi shunday dialektik aloqadorlikda mavjud bo'ladi. Ularni bir-biridan ajratish ijtimoiy anarxiyaga yoki aksincha, diktaturaga olib keladi. Agar davlat faqat majburiyatlarni yuklab, huquqlarni cheklasa – totalitarizm yuzaga keladi; agar fuqarolar faqat huquqlarni talab qilib, majburiyatlarni bajarmasa – jamiyat parokandalikka va tartibsizlikka yuz tutadi[4].

Biz, yuridik fakultet talabalari, ushbu dialektikani o'z hayotimiz va o'qishimiz misolida chuqur tahlil qilamiz. Masalan, davlat bizga oliy ta'lim olish va bepul ilm fan bilan shug'ullanish, munosib stipendiya olish va zamonaviy yotoqxonalarda yashash huquqini ta'minlamoqda. Buning evaziga bizning mas'uliyatimiz va burchimiz nimadan iborat? Bizning majburiyatimiz – darslarni a'lo baholarga o'qish, universitet ichki tartib-qoidalariga rioya qilish, professor-o'qituvchilar tarkibini hurmat qilish, ilmiy tadqiqotlar olib borish va eng muhimi, kelajakda davlatimizning huquqiy tizimini xalqaro miqyosga olib chiquvchi yetuk yurist kadr bo'lib yetishishdir. Davlatimiz biz fuqarolarni tinch va osoyishta muhit, shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlik bilan ta'minlayaptimi, demak, biz ham unga javoban jamoat tartibini saqlashimiz, qonunbuzarliklarga nisbatan murosasiz bo'lishimiz, huquqiy madaniyatni atrofimizdagilar orasida targ'ib qilishimiz shart. Shundagina huquq va majburiyatlarning balansi (muvozanati) ta'minlanadi. Shu sababli, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Konstitutsiyamizni chuqur o'rganish, uni har bir oila, har bir ta'lim maskani va tashkilotda keng targ'ib qilish davr talabidir"[2].

Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish – huquqiy davlat poydevorini qurish demakdir. Namangan Davlat universiteti Yuridik fakulteti talabalari sifatida biz jamiyatda, tengdoshlarimiz orasida va mahallalarda Konstitutsiyaviy islohotlarning mazmun mohiyatini tushuntirish bo'yicha keng ko'lamli targ'ibot ishlarini olib bormoqdamiz. Huquqiy madaniyat uchta asosiy elementdan tashkil topadi: huquqiy bilim (qonunlarni bilish), huquqiy munosabat (qonunlarga ijobiy munosabatda bo'lish va ularni hurmat qilish) hamda huquqiy xulq-atvor (kundalik hayotda qonunlarga amal qilish). Biz yoshlar faqatgina qonunlarni bilish bilan cheklanib qolmasdan, balki ularga so'zsiz itoat etishni hayotiy ehtiyojimizga aylantirishimiz lozim. Konstitutsiyaviy majburiyatlarni bajarish qo'rquv yoki majburlash ostida emas, balki ichki daxldorlik va vatanparvarlik tuyg'usi orqali amalga oshirilishi kerak. Talabalarning huquqiy savodxonligi oshishi bilan birga ularda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik, qonunbuzarliklarga befarq bo'lmaslik, jamoat ishlarida faollik ko'rsatish kabi ijobiy fazilatlar shakllanadi. Bu esa o'z navbatida kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosiy omilidir[5].

XULOSA

Ilmiy-amaliy tahlillarimiz hamda konstitutsiyaviy normalar dialektikasini o'rganish natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquq va erkinliklarini kafolatlovchi xalqaro andozalarga to'liq mos keladigan oliy darajadagi huquqiy hujjatdir. Unda har bir shaxsning daxlsiz huquqlari mustahkamlab qo'yilgan.

Ikkininchidan, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va ularning yuridik majburiyatlari bir-biri bilan uzviy dialektik aloqadorlikda bo'lib, ularning muvozanati jamiyat barqarorligi, qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolatning bosh garovidir. Huquqni majburiyatdan, majburiyatni esa huquqdan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi.

Uchinchidan, Namangan Davlat universiteti yuridik fakulteti talabalari va barcha oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning birlamchi burchi Konstitutsiyada belgilangan o'qish va ilm olish imkoniyatidan unumli foydalanib, o'z zimmasidagi ijtimoiy burch va majburiyatlarni mas'uliyat bilan bajarishdir.

To'rtinchidan, jamiyatda huquqiy nigilizm va huquqiy flegmatizmni bartaraf etish, yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish uchun konstitutsiyaviy normalarni

hayotiy misollar yordamida uzluksiz o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish zarur. Biz yoshlar davlatimiz bergan huquqlardan oqilona foydalanib, majburiyatlarimizni sidqidildan bajarsak, O'zbekiston uchinchi renessans poydevorini muvaffaqiyatli barpo eta oladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023-yil. 80 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021-yil. – 464 b.
3. Saidov A.X. Inson huquqlari: Akademik darslik. – Toshkent: "Adolat", 2020-yil. 320 b.
4. Tojixonov U., Saidov A.X. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 2 jildlik. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998-yil.
5. Xusanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik. – Toshkent: "Adolat", 2013-yil. 416 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. Elektron manba: www.lex.uz (murojaat sanasi: 2026-yil, may).